

2- Ma'ruza: O'zbekiston Respublikasi karantin xizmatining tarkibiy tuzilishi

Reja:

1. O'simliklar karantini bosh davlat inspeksiyasining vazifalari
2. Xo'jaliklardagi karantin vakillarining vazifalari
3. Fumigatsion bo'linmalar va ularning xizmat vazifalari

O'zbekiston Respublikasining o'simliklar karantin xizmati O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini bosh davlat inspeksiyasi, viloyatlar va Toshkent shahar o'simliklar karantini davlat inspeksiyalari, tumanlar, shaharlar o'simliklar karantini davlat inspeksiyalari, temir yo'l stantsiyalaridagi, aeroportlardagi, daryo portlaridagi, pochtaamlardagi va shosselardagi o'simliklar karantini bo'yicha chegara punktlari, o'simliklar karantini bo'yicha ilmiy markaz, markaziy va viloyat karantin laboratoriyalari hamda karantin ostidagi o'ta xavfli zararli ob'ektlarga qarshi kuraShuvchi ixtisoslashgan fumigatsiya bo'linmalardan iborat.

Respublikamiz qishloq va suv xo'jaligi vazirligi O'zbekistonda O'simliklar karantini bosh davlat inspeksiyasi (karantin laboratoriyasi bilan);

Respublikamiz Qishloq va suv xo'jaligi vazirining har bir viloyatdagi va Qoraqalpog'iston Respublikasidagi O'simliklar karantini bosh davlat inspeksiyalari.

Respublikamizning maxsus qarorlariga muvofiq, Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining O'zbekistonda O'simliklar karantini bosh davlat inspeksiyasi quyidagilarga ega:

Komstok qurtining keng tarqalishiga yo'l qo'ymay, uni o'z joyida tugatish uchun tuzilgan maxsus to'sish bo'linmalari;

Tashqi chegara va Respublika ichida qo'llanadigan karantin kontrol postlar;

Karantin yuk va materiallarni zararsizlantiruvchi fumigatsiya bo'linmalari;

O'simliklar karantini O'zbekiston bosh davlat inspeksiyasini laboratoriyasi karantin ob'etlari bo'yicha milliy tekshirish ishlarining rejalarini tuzish va ularni bajarishdan tashqari karantindagi yuklardan olingan namunalarni ekspertiza qiladi, pitomnik va oranjiriyalardagi ko'chatlarni, daladagi ekinlarni entomologik va fitopologik ekspertizadan o'tkazadi, ilmiy tekshirish muassasalari va xo'jaliklarga karantin choralarni amalga oshirish yuzasidan yo'l-yo'riq ko'rsatadi, kontrol'ga olingan qishloq xo'jalik maxsulotlarini zararsizlantirish usullari va texnikasini ishlab chiqadi xamda ularni to'g'ri amalga oshirishga yordam beradi,

O'zbekiston O'simliklar karantini bosh davlat inspeksiyasida fumigatsion bo'linma xo'jaliklarning o'zidagi kameralarda yoki o'z statsionarlarida va ko'chma kameralarida qishloq xo'jalik maxsulotlarini, ko'chat va urug'lik maxsulotlarni zararsizlantiradi.

Respublikamiz qishloq va suv xo'jaligi vazirligining O'zbekistondagi O'simliklar karantini bosh davlat inspeksiyasi Respublikaning juda keng xududiga kontrollik qiladi va juda ko'p kolxoz va sovxoz, ilmiy tekshirish muassasalari, tajriba stansiyalar, oranjereyalar, pitomniklar, yordamchi va boshqa xo'jaliklarga xizmat qiladi. Shuningdek biror xo'jalikka, tashkilotga va muassasaga qaram bo'lmay, qishloq xo'jalik maxsulotlarina, ko'chat va urug'lik materiallarini yetishtirib, tarqatadigan aloxida xo'jaliklarga xam yordam beradi. O'simliklar karantini bosh davlat inspeksiyasi temir yo'l stansiyalari, transport-ekspluatatsion kontoralar, portlar, avioportlar, pochta kontoralari va aloqa bo'limlariga xam kontrollik qiladi

Temir yo'l stantsiyalari, transport –ekspluatatsion kontoralar, aviaportlar va pochta bo'limlaridagi karantin vakillari karantin kontrolligidagi yuk va materiallar jo'natish uchun qabo'ladi qilinayotganda karantin qoidalariga qattiq rioya qilinishini, Shuningdek import qishloq xo'jalik mahsulotlari faqat qishloq ho'jalik mahsulotlarini faqat o'simliklarni karantin qilish inspeksiyasi organlarining ruxsati bilan tarqatilishi ustidan doim kuzatib turadilar.

Xo'jaliklardagi karantin vakillari quyidagicha nazorat qiladilar:

urug'lik, ko'chat materiallari va boshqa qishloq xo'jalik maxsulotlari xo'jalikka kelganida, ularga qo'shib yuborilgan karantin xujjatlarini tekshiradi;

agar yuklarning karantin xujjalari bo'lmasa, urug'lik, o'simlik, meva va boshqalardan namunalar olib, ekspertiza uchun inspektorga yoki inspeksiyaga yuboriladi;

urug'lik, ko'chat materiallari va boshqa qishloq xo'jalik maxsulotlari boshqalarga berilayotgan vaqtda xo'jalikni tekshiradi xamda ularga zarur karantin xujjatlar beradi;

karantin obektlarini topish, ularga qarshi kurash va zararli manbalarni tugatish maqsadida tekshirishchoralarni xo'jaliklar tomonidan qanchalik amalga oshirilayotganligini (belgilangan muddatdami, qo'llanmaga muvofiqmi ekanligini) tekshiradi;

xo'jaliklardan karantin choralar aniqlashni va o'simliklarni karantin qilish xaqidagi topshiriq va qoidalarni bajarishni talab qiladi.


Zarur bo'lib qolgan paytlarda, o'simliklarni karantin qilish oblast davlat inspeksiyasi ayrim xo'jaliklarning karantin vakillari karantin maxsulotlarini tekshirish, karantin sertifikatlarini rasmiylashtirish va berish uchun vakolat beradi. Vakillar beriladigan vakolatlardan karantin xisobilangan maxsulotlarni jo'natishda ular xal qila oladigan masalalar aniq ko'rsatiladi.

Karantin ob'ekti aniqlangan hollarda tuman (shahar) o'simliklar karantini davlat inspektori tavsiyasiga binoan mahalliy hokimiyat organlarining qarorlari bilan ayrim xo'jaliklar, jamoa xo'jaliklari, dehqon (fermer) xo'jaliklari, korxonalar,

temir yo'l stantsiyalari, aeroportlar, daryo portlari, qishloq va shaharchalarning hududi nosog'lom deb e'lon qilinib, ularda karantin yoki zarur cheklashlar o'rnatiladi.

Tumanlar, shaharlar, viloyatlarni o'simliklar karantini bo'yicha nosog'lom deb e'lon qilish va ularda karantin yoki boshqa cheklashlar o'rnatish tegishli o'simliklar karantini bosh davlat inspektorlari tavsiyanomasiga binoan viloyatlar va Toshkent shahar hokimlarining qarori yoki O'zbekiston Respublikasi O'simliklar karantini bosh davlat inspektorining tavsiyanomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan amalga oshiriladi.

Karantin o'rnatish to'g'risida qaror qabul qilinganidan so'ng karantin e'lon qilingan xo'jaliklardan urug' va ko'chatlarni karantin sertifikatlarisiz karantindagi zararkunandalardan, o'simlik kasalliklaridan va begona o'tlardan xoli bo'lgan boshqa xo'jaliklarga sepish va ekish maqsadida olib chiqish man etiladi.



Savollar

1. Xo'jaliklardagi karantin vakillari qanday nazorat o'tkazadilar?
2. O'simliklar karantini bosh davlat inspeksiyasining vazifalari nimalardan iborat
3. Fumigatsion bo'linmalarining vazifasi